

O‘ZBEKISTONDA YETISHIB CHIQQAN HUNARMANDLAR

**Dusyoro Maftuna Chori qizi,
Mustaqil tadqiqotchi**

Annotatsiya: Ushbu tezisda, mustaqillik davridan boshlab hunarmandchilikning rivojlanishi, mahalliy hunarmandlarimizning faoliyati hamda hunarmandlar haqida ma’lumotlar eltirib o’tildi.

Kalit so’zlar: Mustaqillik davri, hunarmandchilik, yosh hunarmandlar, zargarlik, ayollar hunarmandchiligi.

Hozirgi O‘zbekiston hududlarida qadimdan hunarmandchilik bilan shug‘ullanish avloddan avlodga o‘tib keldi. E’tiborga molik jihati, o‘lkadagi zargarlik kasbi muqaddas sanalib, avloddan-avlodga o‘tib borgan. Otaning hunarini davom ettirish o‘g‘ilning zimmasidagi axloqiy va diniy majburiyat hisoblangan. Ayollar hunarmandchiligi va kasanachilik faoliyatining yuzaga kelishi, rivojlanishida uning turli shakllari mavjud bo‘ldi. Yirik er egalari, chorvachilik va bog‘dorchilik mahsulotlarini uy xo‘jaliklariga xomashyo sifatida etkazib berish orqali kalava iplarni yigirish, gilam to‘qish, chorva mollari, terisiga ishlov berish, qo‘y junini qayta ishlash, kiyim - kechaklarni bichish va tikish, ipakchilik, meva quritish, temirchilik, zargarlik, o‘ymakorlik va boshqa shu kabi ishlarni o‘zaro kelishuv asosida bajarishgan. Bunda mas’uliyat asosan kasanachida bo‘lgan va ish beruvchiga ortiqcha talab qo‘ya olmagan. Hamjihatlik, o‘zaro ishonch, hurmat, shogirdlar tayyorlash an’anaga aylanib borgan va “o‘zbekona kasanachilikning asosiy shakllari bo‘lib borgan”.

Ma’lumki, ildizlari o‘tmishning olis davrlariga borib taqaladigan kulolchilik ham – o‘lkamizda boy qadriyat va an’nalarga ega bo‘lgan hunarmandchilik turlaridan biri hisoblanadi. E’tiborli jihati, azaldan kulollar o‘rtasida ham ma’lum bir yo‘nalish bo‘yicha ixtisoslashish jarayoni yuz bergan. Misol uchun, kulollar kosagar, ko‘zagir va boshqa toifalarga mansub bo‘lishgan. Zarafshon vohasi kulollari ham turli xil hajm va shaklga ega bo‘lgan buyumlarni tayyorlaganlar. Masalan, G‘ijduvonlik kulollar asosan shaharning Kosagar mahallasida istiqomat qilishgan. E.M.Pesherova o‘z tadqiqotida g‘ijduvonlik mashhur kosagar ustalar haqida batafsil ma’lumot berib o‘tadi. Mazkur

tadqiqotda qayd etilishicha, Usta Mo‘min, Narzi Kulol, Usmonjon, Usta Qobil Oqsoqol, Shomurod, Mullo Abdulg‘offor, Muhammadjon cho‘loq, Abdusamad, Abdurahmon, Mulloqurbon, Usto Tosh, Ustoqurbon. Bundan tashqari, Usta Ashur, Usta Abdulahat, Usto Abdug‘ani, Usta Baqojon, Usto Bobohasan va Mulla Avaz kabi hunarmandlar tayyorlagan kulolchilik buyumlari xalq orasida ancha mashhur bo‘lgan. Qolaversa, G‘ijduvonda boshqa shaharlardan kelgan kulollar ham faoliyat ko‘rsatishgan. Misol uchun, XX asr boshlarida rishtonlik kulol Usta Abdurahim bu erda katta hajmda kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqargan.

Tadqiqotchi Fayzulla Tolipovning o‘z tadqiqotida oilaviy tadbirkorlik, ayniqsa an‘anaviy hunarmandchilik va kasanachilikning mavjud holatini respublika mintaqalari misolida tahlil etgan, har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ettita mintaqaga bo‘lgan, uning ta’kidlashicha, Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarida atlas, adras va ipak matolar ishlab chiqarish, zardo‘zlik (Marg‘ilon shahri), - kulolchilik (Rishton tumani), -pichoqchilik, do‘ppido‘zlik (Chust tumani)- zardo‘zlik, do‘ppido‘zlik, zargarlik (Andijon, Namangan, Farg‘ona shahri), -yog‘och o‘ymakorligi (Qo‘qon, Kosonsoy, Namangan, Andijon shahri); Toshkent shahrida do‘ppido‘zlik, mato ishlab chiqarish, duradgorlik, yog‘ochsozlik, temirchilik, trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish, zardo‘zlik, qandolatchi-lik va.h.k; Toshkent viloyatida trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish, yog‘ochsozlik, mebelsozlik, temirchilik, ip yigirish (Bo‘stonliq, Parkent, Bekobod tumanlari); Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida junchilik, to‘qima-chilik, gilamdo‘zlik, zardo‘zlik, ip yigirish (Baxmal, Forish, G‘allaorol, Zomin tumanlari va Jizzax shahri); Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlarida asosan gilamdo‘zlik kashtachilik, zargarlik, trikotaj mahsulot-lari ishlab chiqarish, mato to‘qish, do‘ppido‘zlik, jun to‘qish, qorako‘l maxsulolari, zardo‘zlik, ip yigirish (Buxoro shahri, Qorako‘l, Olot, Nurota, Karman, Urgut, Qo‘shrabot tumanlari) yog‘ochsozlik, mebelsozlik, parranda mahsulotlari tayyorlash, qandolatchilik va.h.k; Surxandaryo va Qashqadaryo viloyatlarida asosan beshikchilik, sandiq tayyorlash, zargarlik, bo‘yrachilik, kashtachilik, chinni idishlar, jun mahsulotlar tayyorlash, ip kalava tayyorlash, zardo‘zlik, gilam, so‘zana, kigiz va.h.k), qandolatchilik, (novvot, holva, qand, nisholda tayyorlash) Surxandaryo viloyatining Boysun, Jarqo‘rg‘on, Muzrabot, Uzun, Sariosiyo, Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi, Kitob, Yakkabog‘, Shaxrisabz tumanlari); Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida jun

mahsulotlari tayyorlash, gilamdoʻzlik, terini oshlash (choʻl va dasht-adir mintaqalari Moʻynoq, Qoʻngʻirot, Qizilqum choʻllari, Ustyurt platosi) kabi ixtisoslashuvga boʻlingan.

Istiqlolning dastlabki yillarida bozor munosabatlariga oʻtish davrida hunarmandchilik sohasi ham koʻplab muammolarga duch keldi. Masalan, XX asr 90-yillar matbuotida hunarmandchilik mahsulotlariga nisbatan joriy etilgan soliqlar mavzusini koʻp kuzatish mumkin. Aynan shu davrlarda Usta Amin Qodirov Nurota shahrida oʻzining kashtachilik sexini ochadi. Maʼlumki, oʻtmishda, aniqrogʻi, oʻtgan asrda Nurota kashtalari oʻzining goʻzalligi bilan dunyoga tanilgan edi. Biroq XX asrning oʻrtalaridan boshlab etarli eʼtibor qaratilmaganligi natijasida bu sanʼat turi ham asta-sekin yoʻqola boshladi. Usta Amin Qodirov Nurota kashtachiligining shuhratini qayta tiklash maqsadida 15 nafar chevar ayolni oʻzining kichik korxonasiga jamlab, mavjud anʼanalarga tayangan holda, qoʻl mehnati yordamida kashtalar tikishni yoʻlga qoʻydi. “Tayyor mahsulotni muzeylarga, sayyohlik firmalariga, davlat tomonidan belgilangan (100 soʻmning 60 soʻmi) soliq toʻlash sharti asosida sotamiz. Soliqning bugungi darajasi bizni juda qiynayapti”, deb taʼkidlagan edi.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Сухарева О.А. К вопросу о литье металлов в Средней Азии // Труды института этнографии. Им. Н.Н.Миклухо-Маклая АН СССР. Т.97. – Л., 1971. – С. 200.
2. Ражабов Ў. Касаначилик – бандлик ва оила бюджети даромадларини оширишнинг кўшимча манбаи // Иқтисод ва молия. 2017. – №6, – Б. 12.
3. Ўз МА Фонд - 575, рўйхат - 2т, йиғма жилд - 20, 21 varaқ.
4. Пещерова Е.М. Гончарное производство Средней Азии. – М-Л., 1959. – С. 187.
5. Толипов Ф. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ривожланиш тарихи. (1991–2021 йй.). тарих фан. докт. (DSc) дисс. – Тошкент. 2022. – 141 бет.
6. Халқ санъати экологияси (давра суҳбати) // Гулистон. – 1995. – № 6. – Б.31.